

**ADVOKATLIK INSTITUTI: MILLIY QONUNCHILIK VA  
XALQARO TAJRIBA**

*Inagamova Mafura Muxtarxanova*

*Toshkent davlat transport univerersiteti dotsenti, PHD dotsent*

*Haydarov Javohir Shavkat o'g'li*

*Toshkent davlat transport univerersiteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik kunidan hozirgi kungacha advokatura institutining shakllanishi , sohaning hozirgi kun Yevropa va jahon mamlakatlari misolida rivojlanish istiqbollari keltirib o'tilgan. Shuningdek maqola advokatura institutini takomillashtirish maqsadidagi amaliy takliflarni qamrab olgan.

**Tayanch so'zlar:** advokatura, sud-huquq tizimi, qonuniylik prinsipi, huquqiy maqom, yuridik yordam, huquq normasi, huquqiy ong va madaniyat.

**Аннотация:** В статье упоминается становление института адвокатуры в Республике Узбекистан со дня независимости и по сегодняшний день, рассматриваются перспективы развития сферы на примере стран Европы и мира. В статье также содержатся практические предложения по совершенствованию адвокатуры.

**Ключевые слова:** адвокатура, правовая система, принцип законности, правовой статус, юридическая помощь, правовая норма, правосознание и культура.

**Annotation:** In the article, the formation of the bar institute in the Republic of Uzbekistan from the day of independence to the present day, the development prospects of the field on the example of European and world countries are mentioned. The article also includes practical suggestions for improving the legal profession.

**Keywords:** advocacy, legal system, principle of legality, legal status, legal aid, legal norm, legal consciousness and culture.

Bugungi kunda dunyoda advokatura asosiy va tayanch institutlaridan biri bo'lib, uning zimmasiga yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq vazifa yuklatilgan. Shu sababdan mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab sud-huquq tizimining ajralmas bo'g'ini, ya'ni advokatura institutini isloh qilish, uni inson, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab faoliyat yurituvchi sohaga aylantirish, mustaqil tizimni barpo etishga alohida ahamiyat berib kelindi.

Advokatura tizimida amalga oshirilgan dastlabki islohotlarning natijasi sifatida mamlakatimizda ilk bor 1996 yil 27 dekabrda "Advokatura to'g'risidagi" , 1998 yil 25

dekabrda esa "Advokatura faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. "Advokatura to'g'risida"gi qonunda Advokaturaga huquqiy ta'rif berilib, fuqarolik jamiyatining alohida huquqiy instituti sifatida e'tirof etiladi. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda advokatlik maqomiga ega bo'lish va undan mahrum bo'lish, advokatning intizomiy javobgarligi, advokatning protsessual vakolati, huquq va majburiyatlar, advokatning mehnatiga haq to'lash, kasbiy malakaga qo'yilgan talablar, kasbiy va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq barcha masalalar ilk bor alohida huquqiy norma ko'rinishida belgilab berildi.

Amalda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan advokatlar ularning soni to'xtovsiz o'sib bordi. 2018 yilning 6 oyida 3944 nafarni tashkil qildi. 2018 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu istiqbolli farmonda so'nggi yillarda mamlakatimizda kuchli Advokatura tizimini barpo etish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar, ularning ijobjiy natijalari e'tirof etilishi bilan birga Advokatura institutining bugungi kun talabi darajasida rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ham ko'rsatib o'tildi va sohani isloq qilish yo'naliishlari belgilab berildi.

Shuningdek, "Bepul yuridik yordam to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Uning qabul qilinishi aholining yuridik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Hozirda Adliya vazirligi tomonidan bu borada bir qator ishlar amalga oshirilib, fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida Advice.uz milliy huquqiy internet portali tashkil etildi. Shu bilan birga, 2019 yilning dekabr oyidan boshlab "Madad" nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan aholiga bepul yuridik maslahat va amaliy huquqiy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Natijada aholining huquqiy ongi va madaniyati bir muncha oshganini va endilikda ayrim ishlarni sudga murojaat qilmasdan turib , hal etish imkoniyati yaratilganligini keltirish mumkin.

Yevropa davlatlaridan ingliz huquq tizimida 2 toifaga ajralishi bilan farqlanib turadi. Advokatlar an'anaviy ravishda solisitorlarga (hozirda ular 50 mingga yaqin) va barristerlarga (5 mingdan ortiq) bo'linadi. Ushbu ikki toifadagi advokatlar o'z maqomida sezilarli darajada farq qiladi. Barristerlar Angliyadagi barcha sudsarda so'zlash huquqiga ega bo'lgan sud ma'ruzachilaridir. U ish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini olib boradigan, dalillarni to'playdigan, mijozlar va guvohlar bilan muloqot qiladigan solisitorlarning tavsiyasiga binoan mijozni qabul qiladi. Solisitorlarning o'zları faqat quyi darajadagi sudsarda harakat qilishlari mumkin.Bu usulni ham mamlakatimizda qo'llash mumkin.Bu yo'l bilan advokatlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyati yaratiladi.Shunda bevosita jarayonda ishtirok etuvchi advokatlar e'tiborini advokatlik nutqiga, mijozlar bilan ishlovchilar esa mijoz ko'rsatgan talablar bajarilishiga qaratadilar.

Qo'shma Shtatlarda, shuningdek, huquqshunoslarning, asosan, hududiy asosda ma'lum bir bo'linmasi mavjud. Advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun patent universitet bitiruvchisiga qo'shimcha attestatsiyadan o'tgandan keyin beriladi va bu patent faqat advokat faoliyat yuritishni rejalshtirgan davlat hududida amal qiladi. Advokatning boshqa shtatlarning sudlariga chiqishi bir qator rasmiy shartlarning bajarilishini talab qiladi, ular orasida Amerika Advokatlar Assotsiatsiyasiga a'zolik ham kiradi. AQShda Angliyada bo'lgani kabi advokatlarni funktional ajratish yo'q. Shu bilan birga, bu ikki tizim advokatning mumkin bo'lgan vakolatlarining kengligi bilan bog'liq bo'lib, advokatlar himoya qilish, sudda vakillik qilish va jamoatchilikka maslahat berishdan tashqari, xususiy tergov bilan shug'ullanishi, jazolovchi va boshqa davlat organlari vakilligi, notarial harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Bu tajribani esa qo'llashdan maqsad esa advokatning vakolatlar doirasini kengaytirish va nufuzini oshirishdir. Shu yo'l bilan yosh mutaxassis kadrlarni shu kasbni tanlashiga yo'l ochib berishni ham aytsak bo'ladi.

Advokatlar Germaniyada advokatlik faoliyatiga qabul qilingan sud okrugida kollegiyalar tuzadilar. Germaniyadagi barcha mavjud advokatlar uyushmalari Federal Advokatlar Palatasiga birlashtirilgan. Bu tajriba o'zimizda ham qo'llaniladi va Federal Palata analogi sifatida O'zbekiston Respublikasi Advokatlar Palatasini keltirsak bo'ladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Qozog'iston Respublikasining "Advokatura to'g'risida" gi qonuni (1997 yil dekabr) "advokatni u yuridik yordam ko'rsatadigan shaxsni aniqlanishiga" yo'l qo'yilmasligini ko'rsatadi. Bu esa o'z o'rnila mijozning shaxsini sir saqlanishiga va uning daxlsizligini ta'minlashga yordam beradi. Bu tajriba ham milliy huquq tizimimizda keng qo'llanilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, advokatura institutining milliy sud-huquq tizimimizda roli kundan kunga oshmoqda. Uning chet el mamlakatlari advokatura institute bilan farqli va o'xshash jihatlari mavjud bo'lib, xorij tajribasidan namuna oladigan tomonlarini ham hisobga olish zarur.

Shuni ta'kidlash maqsadga muvofiqki, so'nggi yillarda advokatura instituti sohasida oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida har bir mahallada advokat lavozimini joriy etish zarur. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning huquqiy holatiga baho bertishga, bepul yuridik maslahat berish orqali ko'pgina bahsli masalalarni sudgacha olib bormagan tarzda hal etishga yordam bergen bo'lardi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1) O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida" qonuni.
- 2) "Advokatura faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" qonuni.

- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni.
- 4) “Bepul yuridik yordam to‘g‘risida”gi qonun.
- 5) Advice.uz milliy huquqiy internet portali
- 6) Qozog‘iston Respublikasining "Advokatura to‘g‘risida" gi qonuni.
- 7) Рональд Уолкер. Английская судебная система. М., 1980.
- 8) Апарова Т.В. Организация и функции адвокатуры в зарубежных странах. Правовая помощь малоимущим, М., 1991.
- 9) Баренбойм П.Д. Адвокатура в США//Адвокат, 1993, №1,2.
- 10) Организация адвокатуры в зарубежных странах. М., 1972.